



BANK TIZIMINING BARQARORLIGI

PhD Murodova Mohigul Chori qizi
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
ORCID: 0009-0000-0011-0515
mohigul777_murodova@mail.ru

Annotatsiya. Bank tizimining barqarorligini ta'minlash ularning to'lovga qobilligini ta'minlashning muhim omili bo'lgani holda, mamlakat iqtisodiyotida amalga oshiriladigan to'lovlarning uzluksizligini ta'minlashning zarur sharti hisoblanadi. Shu sababli, bank tizimining barqarorligini ta'minlash bank nazoratining asosiy obyektlaridan biri hisoblanadi. Maqolada O'zbekiston Respublikasi bank tizimining barqarorligini ta'minlash bilan bog'liq bo'lgan dolzarb muammolar aniqlangan va ularni hal qilishga qaratilgan ilmiy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: markaziy bank, pul-kredit siyosati, tijorat banklari, kredit, depozit, moliyaviy barqarorlik, muammoli kreditlar.

СТАБИЛЬНОСТЬ БАНКОВСКОЙ СИСТЕМЫ

PhD Муродова Мохигул Чори кизи
Ташкентский государственный экономический университет

Аннотация. Обеспечение устойчивости банковской системы, являясь важным фактором обеспечения их платежеспособности, является необходимым условием обеспечения непрерывности платежей, осуществляемых в экономике страны. Поэтому обеспечение устойчивости банковской системы является одной из основных задач банковского надзора. В статье выявлены актуальные проблемы, связанные с обеспечением устойчивости банковской системы Республики Узбекистан и разработаны научные предложения, направленные на их решение.

Ключевые слова: центральный банк, денежно-кредитная политика, коммерческие банки, кредит, депозит, финансовая устойчивость, проблемные кредиты.

STABILITY OF THE BANKING SYSTEM

PhD Murodova Mohigul Chori kizi
Tashkent State University of Economics

Abstract. Ensuring the stability of the banking system, being an important factor in ensuring their solvency, is a necessary condition for ensuring the continuity of payments made in the country's economy. Therefore, ensuring the stability of the banking system is one of the main tasks of banking supervision. The article identifies urgent problems related to ensuring the stability of the banking system of the Republic of Uzbekistan and develops scientific proposals aimed at solving them.

Keywords: central bank, monetary policy, commercial banks, credit, deposit, financial stability, problem loans.

Kirish.

Bugungi kunda mamlakatimizda bank tizimi samaradorligini oshirish bo'yicha bir qator ishlar amalga oshirilayotgan bo'lib, ular O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi PF-60-son Farmonida belgilab berilgan. Xususan, "iqtisodiyotga kredit qo'yilmalari o'sish sur'atini (16-18 foiz) yalpi ichki mahsulot nominal hajmi o'sish sur'atlari bilan mutanosib bo'lishini ta'minlash, Xususan, 2022 yil yakuniga qadar 13 ta investisiya loyihasi doirasida 486,0 mln dollarlik xorijiy bank kreditini jalb qilish" kabi masalalar qo'yilgan Lex.uz. (2022).

Shu sababli, bank tizimining barqarorligini ta'minlash prudensial bank nazoratining asosiy ob'ektlaridan biri hisoblanadi. Bozor mexanizmlari joriy etilgan har qanday iqtisodiyotda tijorat banklari faoliyati va moliyaviy barqarorligi mamlakat Markaziy banki tomonidan nazorat qilinadi va tartibga solinadi. Shu bilan birga, ayrim rivojlangan mamlakatlarda mustaqil megoregulyatorlar banklar faoliyati ustidan tegishli nazoratni amalga oshirish, to'lov qobiliyatini mustahkamlash va tartibga solish ishlari bilan shug'ullanadi.

Albatta, xorijiy mamlakatlarda Markaziy bank va megoregulyatorlar banklar moliyaviy barqarorligini ta'minlash hamda to'lov qobiliyatini mustahkamlash bo'yicha katta tajriba va ijobiy natijalarga ega. Biroq, jahon iqtisodiyotining tobora globallashuvi va mamlakatlar o'rtasidagi mehnat taqsimotining chuqurlashuvi natijasida turli darajadagi moliyaviy-iqtisodiy inqirozlar xorij banklari moliyaviy barqarorligi va to'lov qobiliyati mustahkamligiga ta'sir etmasdan qolmayapti. Xususan, buni keyingi yillarda AQShda yuz bergan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi natijasida yuzaga kelgan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar va ziddiyatli holatlarda ham kuzatish mumkin.

Har qanday davlatning iqtisodiyot sohasidagi pirovard maqsadi barqaror iqtisodiy o'sishni, yuqori bandlikni, barqaror ichki baholarning mavjudligini ta'minlash hisoblanadi. Ushbu maqsadga iqtisodiy siyosatni ishlab chiqish va amalga oshirish jarayonida erishiladi. Pul-kredit siyosati, byudjet siyosati, narx-navo siyosati, ish haqi va bandlik siyosati iqtisodiy siyosatning muhim tarkibiy qismlari hisoblanadi.

Bank faoliyati barcha mamlakatlarda qat'iy ravishda tartibga solinadi va nazorat qilinadi. Zero, banklar mamlakatdagi kapitalni safarbar qilish va kreditlar taqdim etish bilan mamlakat moliya tizimida faol ishtirok etadi. Va albatta, nazoratning asosiy maqsadi aholisini qolaversa mamlakat manfaatlarini himoya qilishdir.

Adabiyotlar sharhi.

Bozor mexanizmlari joriy etilgan har qanday iqtisodiyotda tijorat banklari faoliyati va moliyaviy barqarorligi mamlakat Markaziy banki tomonidan nazorat qilinadi va tartibga solinadi. Shu bilan birga, ayrim rivojlangan mamlakatlarda mustaqil megoregulyatorlar banklar faoliyati ustidan tegishli nazoratni amalga oshirish, to'lov qobiliyatini mustahkamlash va tartibga solish ishlari bilan shug'ullanadi.

Albatta, xorijiy mamlakatlarda Markaziy bank va megoregulyatorlar banklar moliyaviy barqarorligini ta'minlash hamda to'lov qobiliyatini mustahkamlash bo'yicha katta tajriba va ijobiy natijalarga ega. Biroq, jahon iqtisodiyotining tobora globallashuvi va mamlakatlar o'rtasidagi mehnat taqsimotining chuqurlashuvi natijasida turli darajadagi moliyaviy-iqtisodiy inqirozlar xorij banklari moliyaviy barqarorligi va to'lov qobiliyati mustahkamligiga ta'sir etmasdan qolmayapti. Xususan, buni keyingi yillarda AQShda yuz bergan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi natijasida yuzaga kelgan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar va ziddiyatli holatlarda ham kuzatish mumkin.

Har qanday davlatning iqtisodiyot sohasidagi pirovard maqsadi barqaror iqtisodiy o'sishni, yuqori bandlikni, barqaror ichki baholarning mavjudligini ta'minlash hisoblanadi. Ushbu maqsadga iqtisodiy siyosatni ishlab chiqish va amalga oshirish jarayonida erishiladi. Pul-

kredit siyosati, byudjet siyosati, narx-navo siyosati, ish haqi va bandlik siyosati iqtisodiy siyosatning muhim tarkibiy qismlari hisoblanadi.

Bank faoliyati barcha mamlakatlarda qat'iy ravishda tartibga solinadi va nazorat qilinadi. Zero, banklar mamlakatdagi kapitalni safarbar qilish va kreditlar taqdim etish bilan mamlakat moliya tizimida faol ishtirok etadi. Va albatta, nazoratning asosiy maqsadi aholisini qolaversa mamlakat manfaatlarini himoya qilishdir. Albatta moliyaviy barqaror bank har qanday qiyin, katta yo'qotishlar bo'lganda, o'zini tezda tiklashi, bozorda mustahkam turishi katta ahamiyatga ega.

Artemenko (1999) o'z ilmiy ishlarida barqarorlikni to'lov qobiliyati bilan bog'laydi hamda absolyut va bir qancha ko'rsatkichlar asosida ular moliyaviy barqarorligini baholashni nazarda tutadi. To'lov qobiliyatini xo'jalik yurituvchi sub'ektlar to'lov majburiyatlarini o'z vaqtida bajarish, shuningdek, moliyaviy barqarorlikni pul oqimlari tahlili asosida baholanadi degan xulosalarni ilgari suradi (Artemenko, Belendir, 1999). Shu bilan birga ushbu ko'rsatkichlar tizimida banklar barqarorligi bilan ular ishonchliligi o'rtasida aloqadorlik mavjud emasligi ko'rinadi.

Efimova (1999) tadqiqotlarida moliyaviy barqarorlikni boshqa ko'rsatkichlar tizimidan foydalanish zarur ekanligini tavsiya etadi. Ushbu umumlashtirilgan ko'rsatkichlar tizimiga olimning fikricha, kompleks ravishda banklar kapitalni oshib borishini ko'rsatuvchi kapital rentabelligi ko'rsatkichini, ikkinchi ko'rsatkich sifatida kapitalning yalpi passivlar hajmidagi ulushini, shuningdek, moliyaviy barqarorlikka baho berishda aktivlar strukturasi, kapital aylanmasi, rentabellik, doimiy va o'zgaruvchi xarajatlarni solishtirilish orqali aniqlash lozim degan xulosalarni beradi (Efimova, 1999).

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, yuqorida sanab o'tilgan ko'rsatkichlar tizimidan foydalangan holda, banklar moliyaviy barqarorligida kapital etarliligi va rentabellik darajasi, kapitalning aktivlardagi ulushi orqali moliyaviy barqarorlikka baho berish mumkin deb hisoblaymiz.

Yuqoridagi tadqiqotlardan o'rganilgan olimlar tomonidan tadqiqotlarida ishonchlilikni alohida ko'rsatkichlar bilan ajratib ko'rsatilmagan bo'lsada, uni moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichi bilan o'zaro bog'liq degan xulosa sifatida qarashmoqda.

Bizning fikrimizcha, tijorat banklari moliyaviy barqarorligini kapital etarliligi, uning rentabelligi va aktivlarga nisbati, shuningdek, moliyaviy barqarorlikka ijobiy ta'sir etuvchi likvidlilik, to'lov qobiliyati, rentabellik va ishonchlilik ko'rsatkichlar tizimi orqali baholash maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Xalqaro moliyaviy tashkilotlarning tijorat banklari moliyaviy barqarorligini ta'minlash metodologiyasini o'rganish, mazkur metodologiyalardan tegishli xulosalarni shakllantirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Shu bois, biz eng avvalo, Xalqaro valyuta fondi tomonidan tavsiya etilgan indikatorlar va ularning ahamiyatli jihatlarini ko'rib chiqamiz. Xalqaro valyuta fondi asosiy va tavsiyaviy xarakterga ega bo'lgan Moliyaviy barqarorlik (Financial Soundness Indicators - FSI) ko'rsatkichlarini chop etib keladi. Moliyaviy barqarorlik indikatorlaridan 12 tasi asosiy indikatorlar bo'lsa, 26 tasi tavsiyaviy xarakterga ega bo'lgan indikatorlar hisoblanadi. Moliyaviy barqarorlik asosiy ko'rsatkichlari qatoriga: kapital etarlilik ko'rsatkichlari, aktivlar sifati, foyda va rentabellik, likvidlilik, bozor riskiga sezgirlik darajasi kabi ko'rsatkichlarni o'z ichiga olsa, tavsiyaviy xarakteriga ega bo'lgan ko'rsatkichlar qatoriga banklar, shuningdek, boshqa moliyaviy muassasalar, korporativ kompaniyalar, xonadon xo'jaligi, bozor likvidligi, ko'chmas mulk bozoriga mo'ljallangandir (<https://www.imf.org>, 2006).

Tadqiqot metodologiyasi.

Ilmiy maqolani tayyorlash jarayonida ma'lumotlarni jadvallar asosida qiyosiy tahlil, ma'lumotlarni guruhlash, abstrakt-mantiqiy fikrlash tizimli tahlil asosida statistik guruhlash, induksiya va deduksiya hamda ekspert baholash usullaridan ham unumli foydalanildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Markaziy bank faoliyatining asosiy maqsadlaridan biri sifatida belgilangan bank tizimi barqarorligini ta'minlash yo'nalishida ham tizimli ishlar davom ettirildi. Ushbu yo'nalishda asosiy e'tibor iqtisodiyotning moliyaviy resurslarga bo'lgan talabini real o'sish sur'atlari doirasida qondirib borishga hamda bank tizimida moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlarini maqbul darajada bo'lishini ta'minlashga qaratildi.

Ta'kidlash kerakki, kreditlash o'sish sur'atlarining yuqori darajada saqlanib qolishi iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlashga xizmat qilishi bilan birga bank tizimida muammoli kreditlarning ortishiga ham olib kelmoqda.

Xozida yurtimizda uchta bank imtiyozli kreditlarni taqdim qilmoqda bular, Xalq banki, Mikrocredit bank va Agrobanklardir.

1-jadval

Tijorat banklarining muammoli kreditlari (NPL)(www.cbu.uz), mlrd so'm

| Sana | Kreditlar | | | Muammoli kreditlar (NPL) | | |
|------------|-----------|------------------------------|----------------|--------------------------|------------------------------|----------------|
| | Jami | shundan: | | Jami | shundan: | |
| | | davlat ulushi mavjud banklar | boshqa banklar | | davlat ulushi mavjud banklar | boshqa banklar |
| 1 | 2 | 3 | 4 | 5 | 6 | 7 |
| 01.01.2021 | 276 974,8 | 244 483,9 | 32 490,9 | 5 784,8 | 5 167,6 | 617,2 |
| 01.01.2022 | 326 385,6 | 280 073,6 | 46 311,9 | 16 974,0 | 15 068,8 | 1 905,2 |
| 01.01.2023 | 390 049,9 | 324 680,7 | 65 368,1 | 13 992,3 | 12 643,3 | 1 349,0 |
| 01.01.2024 | 471 405,5 | 333 298,0 | 138 107,4 | 16 621,3 | 13 267,1 | 3 354,2 |

Manba: www.cbu.uz – O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari.

Bu borada bank tizimi kredit portfeli tarkibidagi muammoli kreditlarning banklar moliyaviy barqarorligiga bo'lgan salbiy ta'sirining oldini olish maqsadida banklar va hukumat tomonidan tegishli chora-tadbirlar ko'rib borilmoqda. 2021 yilga nisbatan jami kreditlar 276 974,8 mlrd so'm tashkil etgan bo'lsa shundan, davlat ulushiga ega bo'lganlari 244 483,9 mlrd so'm bo'lib boshqa banklarga tegishlisi 32 490,9 mlrd so'm. Muammoli kreditlar esa 5 784,8 mlrd so'm tashkil etgan bo'lsa shundan, davlat ulushiga ega bo'lganlari 5 167,6 mlrd so'm bo'lib boshqa banklarga tegishlisi 617,2 mlrd so'm. Yillar davomida kreditlar berishdagi qiymat ortib borgan.

2024 yilda jami kreditlar 471 405,5 mlrd so'm tashkil etgan bo'lsa shundan, davlat ulushiga ega bo'lganlari 333 298,0 mlrd so'm bo'lib boshqa banklarga tegishlisi 138 107,4 mlrd so'm. Muammoli kreditlar esa 16 621,3 mlrd so'm tashkil etgan bo'lsa shundan, davlat ulushiga ega bo'lganlari 13 267,1 mlrd so'm bo'lib boshqa banklarga tegishlisi 3 354,2 mlrd so'm. Hozirda muammoliy kreditlarni asosiy qismi davlat tomondan aholini tadbirkorligi uchun beriladiga kreditlar zimmasiga to'g'ri kelmoqda.

Xalqaro Bazel III standartlariga muvofiq yuqori foiz stavkalarda ajratilgan hamda muammoga aylangan kreditlarga nisbatan 1,5-2 barobar miqdorida kapital buferini shakllantirish talablari amaliyotga joriy etildi. Tijorat banklari faoliyati turli ssenariylarda stress-testlardan o'tkazilib, kelgusida ularning kapitali va likvidligiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi xatarlarni kamaytirish choralari ko'rib borilmoqda. 2021 yil yakunlari bo'yicha bank tizimida kapital etarliligi ko'rsatkichi 17,5 foizni tashkil etib, minimal talabdan (13 foiz) yuqori bo'lishi ta'minlandi.

Bank tizimi moliyaviy barqarorligi amalga oshirishda bank reytingiga etibor berish lozim, bank reytingi esa moliyaviy barqarorlikka bevosita ta'sir qiladi. Reyting bo'lmasa, na butun amaliy hayotni, na shaxsiy hayotni tasavvur qilish mumkin (Qoraliev, Abdullaev, 2009).

2- jadval

Tijorat banklarining resruslari tarkibi(www.cbu.uz), mlrd. so'm

| Ko'rsatkichlar nomi | 01.01.2021 | | 01.01.2022 | | 01.01.2023 | | 01.01.2024 | |
|--|-----------------|---------------|------------------|---------------|----------------|----------------|---------------|----------------|
| | mlrd. so'm | ulush, foizda | mlrd. so'm | ulush, foizda | mlrd. so'm | ulushi, foizda | mlrd. so'm | ulushi, foizda |
| 1 | 2 | 3 | 4 | 5 | 6 | 7 | 8 | 9 |
| Majburiyatlar | | | | | | | | |
| Depozitlar | 114746,9 | 37,3 | 156 189,8 | 41,8 | 216 738 | 45,4% | 241687 | 43,5% |
| Markaziy bankning hisobvaraqlari | 1 089,2 | 0,4 | 708,8 | 0,2 | 784 | 0,2% | 1 345 | 0,2% |
| Boshqa banklarning mablag'lari - rezidentlar | 13 001,4 | 4,2 | 13 288,6 | 3,6 | 18 781 | 3,9% | 24 577 | 4,4% |
| Boshqa banklarning mablag'lari - norezidentlar | 3 175,4 | 1,0 | 4 670,8 | 1,2 | 22 798 | 4,8% | 20 074 | 3,6% |
| Olingan kreditlar va lizing | 151704,0 | 49,3 | 173 750,3 | 46,5 | 186 614 | 39,1% | 224351 | 40,4% |
| Chiqarilgan qimmatli qog'ozlar | 9 523,0 | 3,1 | 10 612,7 | 2,8 | 10 915 | 2,29% | 13 161 | 2,4% |
| Subordinar qarzarlar | 3 999,5 | 1,3 | 4 248,5 | 1,1 | 6 619 | 1,4% | 9 653 | 1,7% |
| To'lanishi lozim bo'lgan hisoblangan foizlar | 3 714,8 | 1,2 | 3 960,0 | 1,1 | 5 487 | 1,1% | 8 106 | 1,5% |
| Boshqa majburiyatlar | 6 815,6 | 2,2 | 6 575,4 | 1,8 | 8 444 | 1,8% | 12 125 | 2,2% |
| Jami majburiyatlar | 307769,9 | 100,0 | 374 004,9 | 100,0 | 477 181 | 100% | 555078 | 100% |
| Kapital | | | | | | | | |
| Ustav kapitali | 44 655,8 | 76,5 | 54 760,0 | 77,2 | 59 857 | 75,2% | 68 643 | 70,7% |
| Qo'shimcha kapital | 434,6 | 0,7 | 675,5 | 1,0 | 997 | 1,3% | 1 339 | 1,4% |
| Zaxira kapitali | 5 205,9 | 8,9 | 8 452,2 | 11,9 | 7 321 | 9,2% | 11 153 | 11,5% |
| Taqsimlanmagan foyda | 8 055,0 | 13,8 | 7 029,9 | 9,9 | 11 391 | 14,3% | 15 945 | 16,4% |
| Jami kapital | 58 351,3 | 100,0 | 70 917,6 | 100,0 | 79 565 | 100% | 97 079 | 100% |

Jadvalda ko'rinadiki, 2021 yilda majburiyatlar jami 307769,9 mlrd so'mni tashkil etib 2024 yilga kelib 555078 mlrd so'm bo'lib yillar kesimida o'sgan. Makroprudensial siyosat instrumentlarini amaliyotga faol joriy etish va moliyaviy barqarorlikni ta'minlash doirasida aholining bank kreditlari bo'yicha qarz yukini muntazam kuzatib borish amaliyoti yo'lga qo'yildi.

Reyting – bu muayyan ob'ekt yoki sub'ekt to'g'risidagi natijaviy baho bo'lib, qaror qabul qilish bo'yicha g'oyat muhim vosita hisoblanadi. Chunki u, aytaylik, bankirga bankning taraqqiy etish yo'nalishini, ishbilarmonlikning jonlanishini, demak, foyda olish imkoniyatlarini ham hech shubhasiz ko'rsatib beradi. Shuningdek, reyting tizimi:

- banklar faoliyatini xalqaro amaliyotda qabul qilingan me'yorlar asosida qiyosiy tahlil qilishda;
- mazkur bankning moliyaviy bozordagi o'rnini, nufuzini, shuningdek, muammoli banklarni aniqlashda;
- banklar taraqqiyotidagi mayl (tendensiya)larni kuzatish, umumlashtiruvchi va xususiy ko'rsatkichlarning dinamikasini tahlil qilishda;
- banklar samaradorligiga baho berishda juda ham zarur.

Barcha manfaatdor tomonlarning xohish va istaklarini inobatga oluvchi reyting usuli yordamida aholi omonatlari qaerlarda ko'proq, qaysi banklarda qanday foizlarda joylashtirilyapti, depozitlar bo'yicha ahvol qanday, sertifikat va aksiyalarning sotib olinishi qay darajada kabi savollarga ham javob olish mumkin.

Xalqaro amaliyotda bank reytinglarini baholashning juda ko'p turlari mavjud. Ular ichida quyidagi ikki usul eng ko'p tarqalgan:

- miqdoriy ko'rsatkichlar orqali baholash;
- sifat ko'rsatkichlari orqali baholash.

Miqdoriy ko'rsatkichlar orqali baholash usuli asosan banklar faoliyatining rivojlanishini tahlil qilish maqsadida qo'llanilib, ularga quyidagilar kiradi:

- aktivlar summasi;
- depozitlar;
- kreditlar;
- o'z kapitalining summasi;
- daromad summasi.

Bu ko'rsatkichlar orqali banklar faoliyati ommalashtiriladi.

Baholashning ommaviy axborot vositalari yordamida ikkinchi turi sifat ko'rsatkichlari bo'lib, ular bankning ishonchlik darajasini ifodalaydi. Bu ko'rsatkichlar turkumiga quyidagilar kiradi: kapitalning etariligi, aktivlar sifati, daromadlilik darajasi, bank likvidliligi.

Xulosa va takliflar.

1. Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligi bir tomondan bank moliyaviy faoliyatini kengaytirish va oshirishga qaratilsa, ikkinchi tomondan, iqtisodiyotni rivojlantirish uchun turli tarmoq va sohalarga investisiya kiritish tijorat banklarning likvidligini baholash kabi masalalarga qat'iy e'tibor berilishini taqozo etmoqda. Bank moliyaviy barqarorligini ta'minlash yo'llari va usullarini aniqlash alohida dolzarblik bo'lib, bank o'z faoliyatni bir tekis olib borishi, faoliyatini uzoq muddatli ijobiy natijalarga erishish maqsadlari bilan chambarchas bo'lishi lozim.

2. Bank nazoratini amalga oshirishdan asosiy maqsad bank mijozlari va kreditorlarining manfaatlarini himoya qilishdir. Banklar faoliyati ustidan nazoratning etariligi va samaradorligi bank tizimi barqarorligini ta'minlash va banklarga bo'lgan ishonchni mustahkamlashning asosiy omilidir. So'nggi yillarda banklarning tanazzulga uchrash xavfining oshib ketganligi sababli bank faoliyati nazoratining uzluksizamalga oshirilishi shartligini taqozo qiladi. XX asrning 80 yillariga kelib esa bank nazorati tizimi xalqaro miqyosda shakllani boshladi va shu asnoda bank nazorati bo'yicha Bazel qo'mitasi tarkib topdi. Bank tizimining yuqori tezlikda rivojlanishi va integrasiyalashuvini hisobga olgan holda ushbu qo'mitaning talablari yildan yilga ortib bormoqda.

3. Reyting - bu muayyan ob'ekt yoki sub'ekt to'g'risidagi natijaviy baho bo'lib, qaror qabul qilish bo'yicha g'oyat muhim vosita hisoblanadi. Chunki, aytaylik bankirga bankning taraqqiy etish yo'nalishini, ishbilarmonlikning jonlanishini, demak, foyda olish imkoniyatlarini ham hech shubhasiz ko'rsatib beradi.

Adabiyotlar/ Литература/ Reference:

Artemenko V.G., Belendir M.V. (1999) *Finansoviy analiz*. – M.: DIS, – s. 227.

Efimova O.V. (1999) *Finansoviy analiz*. – M.: Buxgalterskiy uchet, – s. 341.

<https://www.imf.org/external/pubs/ft/fsi/guide/2006/pdf/rus/guide.pdf>

Lex.uz. (2022). ПФ-60-сон 28.01.2022. 2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида. [online] Available at: <https://lex.uz/docs/5841063>

Qoraliev T., Abdullaev Yo. (2009) *"Bank ishi" darslik*. Toshkent.

Показатели финансовой устойчивости Руководство по составлению 2007. (n.d.). Available at: <https://www.imf.org/external/pubs/ft/fsi/guide/2006/pdf/rus/guide.pdf>